

*Allaberganova Ilmira**Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali**Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi***+998991139592****GURGANJDA FAOLIYAT YURITGAN ILM MASKANI**

Annotatsiya:Maqola Xorazmshohlar davlatida Gurganjda XI asrda faoliyat yuritgan Xorazm Ma'mun akademiyasi faoliyatiga bag'ishlanadai. Shuningdek maqolada akademiyada ishlagan allomalarning ilmiy tadqiqotlari va ularning asarlari hamda faoliyat yuritgan tabiblar to'g'risida ma'lumotlar keng yoritilgan.

Kalit so'zlar:Akademiyasi, tsivilizatsiya, tabib, sulola, Ma'muniylar, Xorazmshohlar, Somoniylar.

Аннотация:Статья посвящена деятельности Хорезмской академии Маъмуна, действовавшей в XI веке в Гургендже в государстве Хорезмшахов. Также в статье содержится обширная информация о научных исследованиях и трудах ученых, а также врачей, работавших в академии.

Ключевые слова:Академия, цивилизация, врач, династия, Маъмуниды, Хорезмшахи, Саманиды.

Abstract:The article is devoted to the activities of the Khorezm Academy of Mamun, which operated in the 11th century in Gurgenj in the state of the Khorezmshahs. The article also contains extensive information about the scientific research and works of scientists, as well as doctors who worked in the academy.

Keywords. Academy, civilization, doctor, dynasty, Mamunids, Khorezmshahs, Samanids.

Kirish. IX–XIII asr boshlarilarda O'rta Osiyo xalqlari hayotida ro'y bergan madaniy uyg'onish (renesans) davri butun jahon tsivilizatsiyasi tarixida yorqin iz qoldirdi. O'sha davrlarda Arab imperiyasi tarkibidan ajralib chiqqan va hozirgi O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan somoniylar va xorazmshohlar saltanati davlat arboblari ilm-fan va madaniyat ravnaqi uchun ham zarur sharoitlarni yaratishga intilgandilar.

Asosiy qism. 995 yilda Gurganj hokimi Ma'mun ibn Muhammad Xorazmni birlashtirish maqsadida uning janubiy poytaxti Kot shahrini qo'shin bilan bosib oldi. Natijada Xorazmda Ma'muniylar sulolasining 22 yillik hukmronlik davri boshlandi. Uning hukmdorlari Ali ibn Ma'mun (997–1009) va Abul Abbas Ma'mun ibn Ma'mun (1009–1017) davrida Gurganjda "Dorul-hikma" nomi bilan tarixda o'chmas iz qoldirgan ilmiy markaz faoliyat ko'rsatdi.

Gurganjda faoliyat yuritgan ilmiy maskan o'z zamonasining 40 dan ortiq taniqli olimlarni birlashtirgandi. Ularning aksariyati ko'p qirrali ilm sohiblari bo'lib, o'zaro hamkorligi va baxs-munozaralari jarayonida falakiyot (astronomiya), riyoziyot (matematika), handasa (geometriya), tarix, falsafa, mantiq, jo'g'rofiya (geografiya), tibbiyot (meditsina), dorishunoslik kabi fanlarning dolzarb muammolari yechimini topishga muvaffaq bo'ldilar. Olimlarning erishgan yutuqlari va merosi uzoqdagi yulduzlardek bugungacha yorqin nur sohib turibdi.

Ma'mun akademiyasi olimlarining sardori va rahnamosi Abu Rayhon Beruniy edi. Xorazmshoh Ma'mun taklifi bilan mazkur ilm dargohiga asos solgan Al-Beruniy 36 yoshda

bo'lishiga qaramasdan bilim ahli orasida tashkilotchilik qobiliyati yuqori bo'lgan obro'li olim sifatida tan olingandi. Yoshligida Abu Nasr Mansur ibn Iroq (958-1036) ismli yirik matematik olimdan tahsil olgan Al-Beruniy dastlab astronomiya faniga ixlos qo'ydi. 997 yilda u Eronning Jurjon shahriga muhojirlikka ketib, muhtojlikda yashagan davrida tarix fani bilan jiddiy shug'ullandi. Natijada taxminan 1000 yilda o'zining dastlabki fundamental ilmiy asari — "Al osor ul boqiya an ul-qurun ul-holiya" ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar") kitobini yozib tugatdi. Keyinchalik olim "Kitob ul-musamarafi axbori Xorazm" ("Xorazm haqidagi axborotlar to'g'risida suhbatlar") nomli yana bir tarixiy kitobni yozdi [2]. 1004 yilda xorazmshoh Ali ibn Ma'mun taklifi bilan vataniga qaytgan Al-Beruniy samoniylar, qoraxoniylar va g'aznaviylar davlati arboblari zulmidan jafotortib Urganchga kelgan ko'plab olimlar qatori "Dorul-hikma"da faoliyat ko'rsata boshladi. Oradan biroz vaqt o'tgach, Beruniy xorazmshoh va uning dono vaziri Ahmad ibn as-Suhayliy bilan bir qatorda muhojir ilm ahliga muruvvat ko'rsata boshladi. Ular orasida mashhur faylasuf, shoir va tabiblar — Abul Xayr ibn Hammor, Abu Abdulloh Iloiy, Abu Sahl Masihiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Mansur Qamariy, matematik va astronom Abu Nasr Mansur ibn Iroq, Mahmud Hamid ibn Xidr al-Xo'jandiy, tarixchi va tilshunos olimlar — Abu Mansur as-Saolibiy, Abu Ali ibn Miskavayh, kimyogar Abulhakim Muhammad ibn Abdumalik as-Solih, Al-Xorajiy, Al-Hamdakiy, Abu Abdulloh Al-Biyan Naisaburiy, Ahmad ibn Muhammad as-Sahri, Ahmad ibn Hamid an-Naisaburiy va hozirgacha ism-shariflari aniqlanmagan yana boshqa o'nlab iqtidorli olimlar bor edi[2].

1017 yilda Xorazmni bo'ysundirgan Sulton Mahmud bir guruh olimlar qatori Al-Beruniyni ham G'aznaga olib ketdi. Yangi joyda olimning rahbarligida "Yamin rasadxonasi" nomi bilan observatoriya qurildi. Umrining oxirigacha G'azna shahrida yashagan olim keksayganida ham kecha-yu kunduz ijod qildi. Uning qalamiga mansub 154 ta asarlar orasidan "Minerologiya", "Geodeziya", "Farmakognezeiya", "Hindiston" kabi fundamental tadqiqotlar o'rin olgan. "Ulug' bunyodkor Beruniy fanning bir qator hal qiluvchi masalalarida o'z davridan besh yuz yil, balki undan ham ko'proq oldinga ketgandi", — deb yozgandi olimning ilmiy merosiga yuqori baho bergan akademik S.P.Tolstov[2].

Al-Beruniyning tibbiyot ilmi bilan jiddiy shug'ullanganligi haqida aniq ma'lumotlar saqlanib qolmagan bo'lsada, uning tabiblik sanhati sirlaridan bevosita voqif bo'lganligi va ayniqsa dorivor giyohlarni juda yaxshi bilganligiga zarracha shubha yo'q. Chunki u butun umri davomidagi izlanishlari jarayonida tabiblar kundalik faoliyatida ishlatadagan 4500 tadan ortiq dori-darmonlarning xorazm, grek, lotin, hind, eron, turk, suriya, so'g'd va boshqa tillardagi nomlarini qiyosiy holda solishtirish, tarkibi va foydali xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarni to'plashga erishgan. Natijada olim "Kitob as-Saydana" ("Farmakognezeiya") nomli fundamental asar yozib qoldirgan[3].

"Kitob as-Saydana"dagi mavjud 29 bo'limda 1116 ta dori-darmonlar haqidagi ma'lumotlar alohida boblarga ajratilgan holda bayon etilgan. Olim qayd etgan dorilarning 107 tasi mineral, 101 tasi hayvonlar va 880 tasi o'simliklardan olinadigan bo'lib, ular murakkab va oddiy guruhlarga bo'lingan[4]. Agar biz ularni Abu Ali ibn Sinoning "Tibb qonunlari" asarining 2 kitobidagi ma'lumotlar bilan solishtiradigan bo'lsak, undagi 811 ta bobning 570 tasida 400 ga yaqin o'simliklardan olinadigan dorilar haqida fikr yuritiladi. Bundan ko'rinadiki, Ibn Sinoning asaridan taxminan 20 yillar keyin yozilgan Al-Beruniyning kitobidagi qo'shimcha ma'lumotlar o'simliklardan olinadigan noorganik moddalar hisobiga ko'paytirilgan[7].

Keyingi yillardagi tadqiqotlar natijasida Al-Beruniy merosida tilga olingan 674 ta dorivor giyohlarning 224 tasi O'zbekiston Respublikasi va 103 tasi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi hududida o'sishi aniqlandi. Bugungi kunda Al-Beruniy asarida qayd etilgan dori-darmonlardan 50 tasi zamonaviy tibbiyot amaliyotida qo'llanilmoqda va Davlat dori-lar zahirasiga kiritilgan. Kimyogar va farmatsevt olimlar olib borayotgan taqiqotlarni o'tmishda iz qoldirgan ajdodlarimizning buyuk merosi bilan bevosita bog'lash muhim ahamiyat kasb etgan bo'lardi[7].

Al-Beruniy merosini qadrlagan olimlar orasida uning ustozlari Abu Nasr Mansur ibn Iroq (958-1036) alohida o'rin egallagan. Mashhur faylasuf Umar Hayyom uni eng buyuk olimlardan bir deb tan olgandi. O'z navbatida Al-Beruniy ham ustozining fikri teran, zehni o'tkir, dono va sofdil, ilmiy munozaralarda esa odil bo'lganligini tahkidlagan. Ibn Iroq o'z navbatida 12 ta ilmiy asarini istehdodli shogirdi Al-Beruniyga bag'ishlagandi[6].

Ibn Iroqning bizgacha mahlum bo'lgan asarlari orasida "Abu Ali ibn Sinoning yuqori planetalar tengsizligini tushuntirish kitobiga tuzatish" nomli risola ham bor. Ko'rinib turibdiki, qomusiy bilim sohibi bo'lgan Ibn Sino matematikadan tashqari falsafa, astronomiya, musiqashunoslik, huquqshunoslik, adabiyot kabi fanlarni ham chuqur o'zlashtirgandi.

Abu Ali ibn Sinoning daho darajasidagi yetuk olim bo'lib shakllanishida xorazmlik fan namoyondalarining xizmatlari katta edi. "Zarurat yuzasidan Buxoroni tark etib, Gurganj tomonga ko'chishimga to'g'ri keldi, — deb yozgandi u o'z tarjimai holida. — U yerda ilmni sevuvchi Abul Husayn as-Sahliy vazir edi. U yerning amiri huzuriga bordim. U Ali ibn Ma'mun edi. Men u paytda so'filar ridosini kiyib olgandim. Menga yetarli miqdorda oylik tayin qilishdi"[3].

Oradan biroz vaqt o'tgach, 1004 yilda Ibn Sino Al-Beruniy bilan uchrashdi. Har ikkala olim o'rtasidagi do'stlik va dastlabki hamkorlik o'zaro ilmiy yozishmalar jarayonida, shaxsan uchrashuvlaridan ancha oldin boshlangandi. Ular yuzma-yuz olib borgan ilmiy munozaralar juda ko'plab yangi g'oyalarning uyg'onishiga turtki berdi.

Endigina 25 yoshni to'ldirgan olim ilm ahli orasida taniqli bo'lsa-da, uni "Dorul-hikma" ahzolari qatoriga qabul qilishdan oldin sinovdan o'tkazishgan degan taxminlar bor. Ibn Sinoni imtihon qilgan yirik olimlar orasida Abul Xayr al-Hammor, Abu Sahl Masihiy, Abu Abdulloh Iloqiy kabi mashhur tabiblar bo'lgan. Dastlabki muloqotlar vaqtida o'zini biroz dimog'dorlik bilan tutgan Ibn Sinoga tanbeh bilan bir qatorda qo'shimcha tayyorlanish uchun muhlat belgilangan. Keyingi imtihonda qatnashgan Al-Beruniyning tavsiyasi bilan Ibn Sino xorazmshoh Ma'mun saroyi olimlari davrasiga kiritilgan[4].

Keyingi yillarda Ibn Sino ustozlari va hamkasblari bilan munozara va muloqotlarda ijod qildi. Olim o'zining tibbiy muolajalari va tajribalari jarayonida xorazmlik ko'plab tabib va olimlarning maslahatlari va to'plagan mahlumotlaridan keng foydalandi[2]. Yosh va qobiliyatli shogirdlarni tarbiyalab, vohada ilm-fan va madaniyat ravnaqiga katta hissa qo'shgan olim o'zining buyuk asari — "Al qonun fit-tibb" ("Tibb qonunlari") kitobining dastlabki qismini ham Gurganjda yozishni boshladi.

Xorazmni o'ziga tobe qilishni istagan Mahmud G'aznaviy kuyovi — Abul Abbos Ma'mun ibn Ma'mundan o'z saroyidagi olimlarni G'aznaga jo'natishni qat'iy talab qilgandi. Mahmud saroyida xizmat qilishni istamagan Ibn Sino 1012 yilda Eronga ketib, uning Abivard, Tus, Nishopur, Jurjon, Isfahon, Ray, Hamadon kabi shaharlarida musofirlikda yashadi.

Faqirligiga qarmasdan tinimsiz ijod qilgan olimning bilimi yuqori baholanib, unga "SHayh ur-rais" unvoni berilgan. Abu Ali ibn Sino qalamiga mansub 274 ta asar aniqlangan bo'lib, ulardan hozirgacha 160 tasi topilgan, xolos. Olimning 40 asari tibbiyot, 30 tasi tabiiy fanlar, 3 tasi muzika, 185 tasi falsafa, mantiq, psixologiya, teologiya, axloq va ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan[3].

Xorazmda Ibn Sino bilan do'st tutingan olimlar orasida Abu Sahl Masihiy (970-1012) alohida o'rinda turardi. U Eronning Jurjon shahrida tavallud topgan bo'lib, umrining ko'p qismini Xorazmda o'tkazgandi. Xorazmshoh saroyida tabib bo'lib ishlayotgan Masihiy tabiatshunos, astronom va faylasuf sifatida «Donishmandlar uyi» olimlari orasidan o'rin oldi. Ibn Sino Urganchga kelgach, Masihiy unga homiy va yaqin hamfikir bo'lib qoldi. Natijada ular bir qator murakkab jarrohlik muolajalarini birgalikda amalga oshirishga erishdilar[5].

Kelgusida Masihiy va Ibn Sino birgalikda Xorazmni tark etishga qaror qilishdi. Ammo Qoraqum orqali o'tgan yo'lda Masihiy chanqoq azobidan og'ir xastalanib, vafot etadi. Undan qolgan qo'lyozmalarning katta qismi Ibn Sino xizmatlari tufayligina saqlanib qoldi. Ular orasida matematika, astronomiya, iqlimshunoslikka oid kitoblaridan tashqari, "Qutub al-miha fis-sinohat at-tibbiya" ("Tibbiyotga doir yuz masala"), "Tibbiyot asoslari", "Umumiy tibbiyot haqida kitob", "CHEchak haqida", "Vabo haqida" kabi tibbiyotga oid 8 ta asar mavjud bo'lgan. "Tibbiyotga oid yuz masala" nomli qomusiy asarning bir nusxasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi SHarqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida 12970-raqami bilan saqlanadi[5].

Xorazmshoh Ma'mun saroyida xizmat qilgan yana bir mashhur tabib — Abulhayr ibn Sivor ibn Bahrom al-Hammor edi. U 942 yilda Bag'dodda tavallud topgan bo'lib, dunyoviy bilimlarning ko'plarini chuqur egallashga erishdi. Ma'mun saroyidagi olimlar orasida katta obro'-ehtiborga sazovor bo'lgan al-Hammor "Maqola fi-imtixon il at-tibb" ("Tabiblar bilimini sinash"), "Insonning yaratilishi va ahzolarining tuzilishi", "Tutqanoq kasalligi haqida", "Qarilikda sog'lom yashash haqida" kabi tibbiyotga oid noyob asarlar yozdi. 1017 yilda Xorazmni Sulton Mahmud zabt qilgandan so'ng, ko'pgina olimlar qatorida al-Hammor G'aznaga olib ketilgan va bir yil saroyda xizmat qilgandan so'ng, 76 yoshida vafot etgan [4].

Xorazmshoh Ma'mun akademiyasi olimlari orasida Abu Abdulloh Iloqiy (vafoti 1068 yil) ham nufuzli o'rinlardan birini egallab turardi. Asli Toshkent viloyatidagi Iloq qishlog'ida tavallud topgan Abu Abdulloh Samarqand va Buxoroda tahsil olgan bilimdon tabib va sermahsul olim edi. Uning "Kasalliklarning sabablari va belgilari". "Davolash usullari", "Tibbiyotdan to'plam", "Qisqartirilgan qonun" kabi asarlari tabibilar orasida qo'llanma sifatida keng tarqalgandi.

Iloqiy o'z tibbiy muolajalarida bemorlarga vaqtida to'g'ri tashxis qo'yishning muhim ekanligini tahkidlagan. Olim bemorning tomir urushi, og'iz bo'shlig'i holati, qon va siydik tarkibi, o't xaltasida safro ishlab chiqilishini tekshirish lozimligini ko'rsatgan. Dardi aniqlangan bemorga dori-darmonlar bilan bir qatorda toza havoda yurish, parhez tutish, dengiz suvida cho'milish kabi muolajalar tavsiya qilingan.

Ayrim mahlumotlarga qaraganda Ma'mun akademiyasi olimlari qatorida Abu Ali ibn Sinoning tibbiyot sohasidagi ustoz — Abu Mansur Qamariy ismli tajribali tabib va olim ham bo'lgan. U SHarq mamlakatlari olimlarining asarlari bilan bir qatorda Yunon, Rim, Vizantiya tabiblarining tajribasi bilan tanish bo'lgan. Natijada tashxis va davolash usullarini yaxshi

o'zlashtirgan Qamariy Buxoro amiri saroyi tabibi lavozimiga tayinlagan. Keyinchalik esa qoraxoniylarning tinimsiz tajovuzlaridan xavfsiragan olim Xorazmga ko'chib kelgan[4].

Abu Mansur Qamariy sermahsul olim sifatida "Kasallar va kasalliklar", "Ko'krak qafasida joylashgan ahzolar kasalliklarini davolash", "Qorin istisqosi", "Oddiy dorilar haqida katta to'plam", "Boylik va salomatlik", "Mansur tibbiyoti" nomli asarlar yozgan[7]. Olim odam tanasining tuzilishi, uning ayrim ahzolari xususiyatlarini ehtiborga olgan holda turli kasalliklarga chalingan bemorlarga tashxis qo'yish va ular dardini davolash usullarini to'g'ri tanlash yo'llarini ko'rsatgan. Qamariy inson salomatligining muhim asoslari qatorida asab organlarini mustahkamlash, xotirjam hayot kechirish, vaqtda va mehyorida ovqatlanish, zararli odatlardan saqlanish, toza va ozoda muhitni yaratish kabi masalalarni qayd qilgan.

Ma'mun akademiyasi olimlari orasida chuqur bilimi va notiqligi bilan shuhrat qozongan Abu Mansur as-Saolibiy (961-1038) o'zining "Yatimat ad-dahr fi maxosin ahl-al-asr" ("Asr ahlining fozillari haqida zamonasining durdonasi") kitobida X-XI asr boshlarida Xorazmda yashab o'tgan Abu Bakr Muhammad ibn al-Abbos al-Xorazmiy, Abu Said Ahmad ibn SHabib ash-SHabibiy, Abul Hasan Ma'mun ibn Muhammad ibn Ma'mun, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ibrohim at-Tojir al-Vazir, Abu Muhammad Abul Qosim Ahmad ibn Zirgom kabi 124 nafar (shulardan 104 tasi O'rta Osiyolik) olimlar haqida mahlumotlarni bergan. Ular orasida adabiyot bilan shug'ullangan zabardast tabibilar ham bo'lganligi ehtimoldan xoli emas[5].

Xulosa. "Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlari SHarq va G'arb o'rtasida o'ziga xos mahnaviy-madaniy ko'prik umuminsoniy qadriyat va madaniyatlar silsilasida uzviy bir xalqa vazifasini ado etgan, desak hech qanday xato bo'lmaydi",— deya ehtirol qilgandi O'zbekistonni birinchi prezidenti I.A.Karimov. Ular nafaqat Xorazmning faxri, balki butun o'rta asr tarixida iz qoldirgan yorqin yulduzlar edi. Olimlarning ijodiy izlanishlari natijasida tabiat va koinotning ko'pgina sirlari ochildi, insonlar salomatligini saqlash va ularning mahnaviy dunyosini mahrifat g'oyalari asosida shakllantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratildi.

Madaniy-milliy qadriyatlarimiz tiklanayotgan hozirgi yangi O'zbekistonda ulug' ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosni ardoqlashimiz va chuqur o'rganishimiz barchamiz uchun ham qarz ham farzdir. Istiqol yaratayotgan buyuk nehmatlardan bahramand bo'layotgan yurtimiz farzandlari ota-bobolar ruhiga sodiq qolgan holda fan va madaniyat bilan bir qatorda tibbiyot ilmini yangi cho'qqilarga ko'taradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Buyuk siymolar, allomalar (1, 2 kitob). — T.: Meros, 1995, 1996.
2. Hayrullaev M. O'rta Osiyo ilk uyg'onish davri madaniyati. -T.: Fan, 1994.
3. Ravshanov F. Mahnaviy taraqqiyotga tahdidlar. -T.: Muharrir, 2010
4. Qayumov A. Abu Rayxon Beruniy. Abu Ali ibn Sino. -T.: "Yosh gvardiya" 1987.
5. Xayrullaev M.M. va b. Mahnaviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar), Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.
6. Zaynab Abidova and Elena Goverdovskaya. Scientific-'edagogical analysis of the 'roblems of 'ersonality 'erfection in the works of Al-Beruni. E'RA International Journal of Research & Develo'ment (IJRD). 6.11 (2021): 213-216.
7. <http://www.natlib.uz> (A.Navoiy nomidagi Milliy kutubxona)